O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
ANDIJON VILOYATI
BOSHQARMASI

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy., Tel/Faks: 71-203-11-49, E-mail: ekspert-2312@mail.ru., new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Ashurov Behzodbek Orifjon O‘g‘li

2026 - yil 16 - martdagi 275828 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: Andijon shaxar, O’zbekiston 20 yilligi MFY, Sariquy ko'chasi 89-manzil hududida “Mavjud ma’muriy va ishlab chiqarish binolarini buzib o’rnida 9 qavatli 10-qavati mansarda uslubidagi turar-joy” bino inshootlari qurilishi.
Buyurtmachi: “SAXOVAT CITY” MChJ
Bosh loyihachi: "RICHMIR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi: Xarid tartib-taomillari asosida aniqlanadi
Qurilish turi: Yangi qurilish
Murojaat raqami: 112517

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Andijon shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bo`limining 31.10.2025-yildagi №226251042 -sonli ruxsatnomasi.

1.2. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasining 05.01.2026-yildagi №1703-1703401-251304 -sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Buyurtmachi “SAXOVAT CITY” MChJ tomonidan 08.01.2026-yilda tasdiqlangan hamda bosh loyihachi bilan kelishilgan loyixalash topshirig'i.

1.4. Buyurtmachi “SAXOVAT CITY” MChJ hamda loyiha tashkiloti o`rtasidagi 02.02.2026-yilda tuzilgan № 2x/26AIIIX sonli loyiha-tadqiqot ishlari uchun shartnoma.

1.5. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 05.02.2026-yildagi №252158303-sonli xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyixaning tarkibiy qismlarining ro'yxatiga muvofiq ishchi loyixa bosqichida to'liq loyixa xujjatlari.

2.2. Loyixa tarkibidagi umumiy tushuntirish yozuvi.

2.3. Muxandislik geologik qidiruv ishlari “O’ZGASHKLITI” MChJ tomonidan 2025-yilda bajarilgan xulosa.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino

Turi	Nomi	Qavati	Qurilish maydoni	Umumiy maydoni	Xajmi
Ko'p xonadonli turar joy binosi	A blok	10	769.50	7960.95	28027.35
Ko'p xonadonli turar joy binosi	B blok	10	424.08	4574.09	15195.84
Jami:			**1193.58**	**12535.04**	**43223.19**

3.1. Qurilish maydoni tafsilotlari:

Qurilish-iqlimiy zonasi - IV;

Me’yoriy qor yuki - 0.50 kg/m2;

Me’yoriy shamol yuk - 0.38 kg/m2;

Yer osti suvlari yer yuzasidan - 20,0 metrdan ortiq chuqurlikda yotishi mumkin;

Cho'kish bo'yicha tuproq sharoitining turi – II;

Hududning zilzilabardoshlik ko‘rsatkichi - 8 ball.

3.2. Bosh reja:

“Mavjud ma’muriy va ishlab chiqarish binolarini buzib o’rnida 9 qavatli, 10-qavati mansarda uslubidagi turar-joy” bino inshootlari qurilishi Andijon shaxar, O‘zbekiston 20 yilligi MFY, Sariquy ko'chasi 89-manzil hududida joylashgan. Qurilish maydoni uchun Andijon shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bo`limining 31.10.2025-yildagi №226251042 -sonli ruxsatnomasiga asosan yer uchastkasi ajratildi. Loyihalashtirish uchun tanlangan yer maydoni quyidagicha chegaralangan: shimol tomondan — ishlab chiqarish obyekti bilan chegaralangan, sharq tomondan — ichki ko`cha bilan chegaralangan, Janub tomondan — loyihaviy ko`cha bilan chegaralangan, g’arb tomondan — ishlab chiqarish obyekti bilan chegaralangan. Bosh rejada loyihaviy 10 qavatli, 10-qavati mansarda uslubidagi 2 dona – A va B blok turar-joy binolari, kichik elektr shahobchasi, bolalar maydonchasi, dam olish ayvoni va avtoturargoh joylashgan. Bosh reja rel`ef va mavjud kommunikatsiyalarni hisobga olgan xolda ishlab chiqilgan. Obodonlashtirish ishlarida loyihaviy bino atrofi bo’ylab bruschatka qoplama yotqizish ishlari, yong’in-qutqaruv mashinalari uchun bino atrofi bo’ylab sement-beton qoplama, bolalar maydonchasida qizil qumli qoplama, maysa o’stirish ishlari, temirbeton irrigatsiya tarmoqlari, avtomobillar o’tish joylarida metal quvurlar yotqizish, chiqindi idishlari, sirpanchiq, arg’umchoq va o’rindiq ko’zda tutilgan.

Hududning texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlar:

Hududning umumiy maydoni – 3500.0 m2/100%;

Hududning umumiy qurilish maydoni – 1289.0 m2/37%;

Yo’l va yo’laklar maydoni – 681.0 m2/19.29%;

Bolalar mayonchasi maydoni- 265.0 m2/7.57%;

Avtoturargohlar maydoni – 390.0 m2/11.14%;

Ko’kalamzorlashtirish maydoni – 875.0 m2/25%.

3.3. Me'moriy va konstruktiv yechimlari:

Loyihalanayotgan “10 qavatli turar joy” binolari – 2 dona blokdan iborat bo’lib, ja’mi 180 dona xonadon joylashgan.

Loyihaviy “10 qavatli turar joy (A blok)” binosi – o’n qavatli, yerto’la qavatiga ega, 10-qavati mansarda uslubida loyihalangan bo’lib, L shaklida tarx bo’yicha o’qlarning umumiy o`lchami 38.10x23.00 m. Bino -1 yerto’la qavati poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3.06

m, yuqori qavatlarning poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 2.76 m, mansarda qavatining poldan shift(metal ferma osti)gacha bo`lgan balandligi esa 3.00 m ni tashkil etadi.
Binoda ikki dona kirish qismi bo'lib, har bir kirish qismida bir dona zinapoya va lift o'rin olgan.
Yerosti -1 qavati texnik xonalar sifatida foydalanish uchun re'jalashtirilgan bo'lib, yong'in tarqalishini oldini olish maqsadida yerto'la qavati quyma beton devor orqali ikkita blokga ajratilgan, shuningdek binoning birinchi qavatidan yerto'la qavatiga tushish uchun yong'inga qarshi devor va eshik bilan o'ralgan zinapoya ko'zda tutilgan. -1 yer osti qavatida 4 dona evakuatsiya chiqish eshiklari ko'zda tutilgan. Lift yerto'la qavatiga xizmat ko'rsatmaydi.
Bino 1-9-qavatlarning har birida bir dona 1 xonali, sakkiz dona 2 xonali xonadon va ikki dona 3 xonali xonadon joylashgan bo'lib, ja'mi mazkur 1-9-qavatlarda 99 dona xonadon joylashgan.
10-qavat – mansarda uslubidagi qavatda bir dona 1 xonali, sakkiz dona 2 xonali xonadon va ikki dona 3 xonali xonadon joylashgan bo'lib, ja'mi mazkur mansarda qavatida o'n bir dona xonadon joylashgan.
Xonadonlarda yotoqxona, bolalar yotoqxonasi, mehmonxona, oshxona, yuvinish xonasi, xojatxona, xoll va balkon ko'zda tutilgan.
Lift binoning 1-9-qavatlariga xizmat qilishi re'jalashtirilgan.
Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari:
Qurilish maydoni – 769.50 m2;
Umumiy maydoni – 7 960.95 m2;
Yashash maydoni – 6 219.85 m2;
Qurilish hajmi – 28 027.35 m3.
Loyihaviy "10 qavatli turar joy (B blok)" binosi – o'n qavatli, yerto'la qavatiga ega, 10-qavati mansarda uslubida loyihalangan bo'lib, to'g'ri to'rtburchak shaklida tarx bo'yicha o'qlarning umumiy o`lchami 24.30x16.60 m. Bino -1 yerto'la qavati poldan shiftgacha bo'lgan balandligi 3.06 m, yuqori qavatlarning poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 2.76 m, mansarda qavatining poldan shift(metal ferma osti)gacha bo`lgan balandligi esa 3.00 m ni tashkil etadi.
Binoda bir dona kirish qismi bo'lib, kirish qismida bir dona zinapoya va lift o'rin olgan.
Yerosti -1 qavati texnik xonalar sifatida foydalanish uchun re'jalashtirilgan bo'lib, -1 yer osti qavatida 2 dona evakuatsiya chiqish eshiklari ko'zda tutilgan. Lift yerto'la qavatiga xizmat ko'rsatmaydi.
Bino 1-9-qavatlarning har birida uch dona 1 xonali va to'rt dona 2 xonali xonadon joylashgan bo'lib, ja'mi mazkur 1-9-qavatlarda 63 dona xonadon joylashgan.
10-qavat – mansarda uslubidagi qavatda uch dona 1 xonali va to'rt dona 2 xonali xonadon joylashgan bo'lib, ja'mi mazkur mansarda qavatida yetti dona xonadon joylashgan.
Xonadonlarda yotoqxona, mehmonxona, oshxona, xojatxona, xoll va balkon ko'zda tutilgan.
Lift binoning 1-9-qavatlariga xizmat qilishi re'jalashtirilgan.
Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari:
Qurilish maydoni – 424.08 m2;
Umumiy maydoni – 4 574.09 m2;
Yashash maydoni – 3 682.10 m2;

Qurilish hajmi – 15 195.84 m3.

A va B bloklar uchun umumiy ko’rsatkichlar:

Ichki pardozlash ishlari - tayyor xolda topshirish shartisiz, xonadonlarni pardevor bilan xonalarga bo’linadi.

Ichki eshiklarsiz amalga oshirilishi ko’zda tutilib, elektr yoritkichlarsiz, isitish va shamollatish tizimlari inventarlarsiz(radiator, moyka, elektr suv isitgichlarsiz, umivalnik va unitazlarsiz) bajariladi.

Zinalar va xonadonlarga kirish qismi (podeyzd) pardozlash ishlari to’liq bitkazilib, devor xamda shiftlar sement qorishmali «travertin» suvoq qilinadi, liftlar o’rnatiladi.

Yerto’la qavatda - pollar tekislangan beton to’shama, devor va shiftlar quruq gips qorishmasida tekisladi. Zinalar va xoll qismida devor xamda shiftlar sement qorishmali «travertin» suvoq qilinadi.

Derazalar – PVX plastmassa materiallardan tayyorlangan bo’lib, 2 qavatli energiya tejamkor. Deraza tokchalari-ichki tomonga PVXdan, tashqi tomonga po’lat rux tunikadan qoplanadi. Eshiklar- yo’laklarga (podyezga) kirish tashqi eshiklar metaldan, xonadonlarga kirish eshiklari metaldan o’rnatiladi. Ichki eshiklar xisobga olinmagan. Yerto’la qavatda metal eshik o’rnatish kerak. Barcha oyna va eshik yon bag’irlari sement qorishma bilan suvoq qilinadi.

Pollar – yerto’lada beton, zinapoya maydonlari va qadamlari hamda xoll qismida sopol plitka qoplamasi bilan qoplanadi.

Tashqi pardozlash ishlari - binoning fasadi tashqi tomonidan bazalt tolali ekstruziyalangan penopolistirol plitalari bilan qoplanib va tashqi ko’rinishini metal karkas asosida «keramogranit» qoplash, sokol «keramogranit» plitka bilan pardozlash ko’zda tutilgan.

Konstruktiv yechimlari **-** Poydevor tuproqlari betonga sust agressiv deb baholanadi. Temirbeton konstruktsiyali portland sementli qo'shimchalar va portland sementli va o'rtacha agressiv sementning barcha markalarida quyilgan.

Binoning konstruktiv yechimi QMQ 2.01.03-19 «Zilzilaviy hududlarda qurilish» 3.1 jadvali 1 punkti (b) bandiga mansub. Bino hisobiy zilzilabardoshligi - 8 ball. Poydevorlar - quyma temirbeton plitalardan. Ustunlar - temirbetondan. Ustunlar kesimi yerto’la va binoning uchinchi qavatigacha 500x500mm, binoning uchinchi qavatidan to o’ninchi qavatigacha 400x400mm, B30 sinfli betondan. To’sinlar - quyma temirbeton, o'lchami 500(h)x500, 500(h)x400 va 400(h)x400 beton sinfi B25. Tom yopma va orayopmalar - temirbeton plitalardan t=180mm beton sinfi B25. Devorlari - gazoblok qalinligi 250, 200 va 120 mm, yuqori sifatli sement-qum qorishmali suvoq, yuqori sifatli shpaklevka, suv emulsiya bo’yoq. Zinapoya - quyma temirbeton. Tom konstruksiyasi – metal ferma ustidan profnastil qoplangan. B25 sinfidagi betondan quyma temirbeton tashqi zina ishlab chiqilgan. Tashqi devor atrofi to’shamasi(otmostka) - bino perimetri bo'ylab beton yo’lakcha rejalashtirilgan, kengligi 1000mm, qalinligi 100 mm, nishabligi 3%.

Shu bilan birga, ishchi loyiha-smeta hujjatlarida muhandislik tarmoqlari va nogironligi bo`lgan shaxslar uchun maxsus ishlarni bajarish ko'zda tutilgan.

Ishchi loyihada - *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablari bo`yicha:*

- Issiq suv ta'minoti markazlashgan issiqlik nasosi (ИТП) va quyoshli issiq suv kollektorlaridan amalga oshiriladi.
- Energiya samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va ob’ekt energiya resurslarini zamonaviy “aqlli” o‘lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo‘yicha talablar ko‘zda tutilgan.
- Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ya`ni quyosh panellari o`rnatish ko‘zda tutilgan.
- Binoda issiqlikni saqlash uchun binoning tashqi fasad qismi 50 qalinlikda mineral vata(bazalt) plita qoplash ko`zda tutilgan;
- Tom issiqlik qatlami – mineral vata(bazalt) plitadan, 150 mm qalinlikda;
- Pol izolyatsiyasi – ekstruziyalangan penopolistiroldan, 50 mm qalinlikda issiqlik himoya qatlami yotqiziladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish ob’yektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori talablari bo`yicha:

- nogironlar uchun to`xtash joyi avtoturargoh tashkil qilish va maxsus belgilar o`rnatish;
- hududda ogohlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplama qoplash;
- binoning kirish qismida me`yoriy qiyalikka ega bo`lgan pandus tutqichlar bilan rejalashtirish;
- nogironlar uchun taktil piktogramma;
- bino yo’laklarida ogohlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplamalar qoplandi;
- kirish eshigidagi kontrast belgi, sariq doira d=200mm;
- sirpanishga qarshi alyumin pol profili;
- taktil tovushli belgilar, ko’rsatkichlar 150x300;
- eshiklar chekkasiga kontrast rangli lentalar re’jalashtirildi;
- nogironlar xojatxonasi uchun taktil piktogramma;
- xona to’g’risida ma’lumot olish;
- birinchi qavatda nogironligi bo’lgan shaxslar uchun maxsus xojatxonalar re’jalashtirildi;
- binoning birinchi qavatiga ko’tarilish uchun ko’tarish mosalamasi hamda turar joyning yuqori qavatlariga ko’tarilish uchun lift ko’zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Obyektni muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasining 05.01.2026-yildagi №1703-1703401-251304 -sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga muvofiq hal qilinadi:

- Elektr ta'minoti - “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialining 28.01.2026-yildagi №03401161387-sonli texnik shartiga muvofiq;
- Issiqlik tarmoqlariga ulanish uchun - “Andijon viloyati issiqlikta’minoti” MChJ ning 17.02 .2026-yildagi №5-sonli texnik shartiga muvofiq;
- Suv ta'minoti - “Andijon suvta`minoti” AJ ning 27.01.2026-yildagi №47-sonli texnik shartiga muvofiq xal qilinadi.

Issiqlik tizimi va shamollatish tizimi:

Turar joy binolarini isitish tizimi markazlashgan isitish qozonidan mahalliy qabul qilinadi. Isitish tizimi va issiq suv ta'minoti uchun markazlashgan isitish qozondan (ИТП) orqali barcha xonadonlar ta'minlanadi. Isitish sistemasi ikki quvurli gorizontal qabul qilingan. Isitish uskunalari sifatida alyumin radiatorlar qabul qilingan. Shamollatish tabiiy va

mexanik yo‘l bilan bajariladi. Toza havo xonalarga deraza, eshiklar orqali amalga oshiriladi.

Ichimlik suvi va oqova suvi tizimi:

Turar joy binolariga xo‘jalik-ichimlik, oqava suvi, issiq suv ta’minoti va yong‘inga qarshi tarmoqlari loyihalangan bo‘lib, tarmoqlar turli xil diametrdagi polipropilen, plastmassa quvurlardan tashkil topgan. Issiq suv ta'minoti markazlashgan issiqlik nasosi (ИТП) va quyoshli issiq suv kollektorlaridan amalga oshiriladi. Oqova suv tarmog‘i polietilen quvurlardan loyihalangan.

Tashqi elektr taminoti:

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialining 28.01.2026-yildagi №03401161387-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi 110/6 kV kuchlanishli “Darxon” podstansiyasidan alohida yacheyka o’rnatish orqali ko’zda tutilgan.

Tarmoq kuchlanishi:

Kirish-tarqatish qurilmasi sifatida AUO blokli VRU-2-1-23-55UXL4 seriyasi qabul qilindi. Turar joy binosida elektr energiyasini hisobga olish EX-518 tipidagi elektron hisoblagich bilan ta'minlanadi. Umumiy maishiy iste'molchilarni hisobga olish VRU ning kirish-tarqatish qurilmasiga o'rnatilgan elektron hisoblagich orqali amalga oshiriladi. Har bir qavatda o'rnatilgan ShE 3501 va ShE 3601 qavat shitlari EX-18 tipidagi elektr hisoblagichlari va UZO tipidagi himoya uzish qurilmalari bilan birgalikda qavat shiti sifatida qabul qilinadi. Xonadon shitlari sifatida bir fazali elektron to'xtatuvchilari bo'lgan ShRN tipidagi shitlar qabul qilindi. Qavat shitlariga magistral tarmoqni podvaldagi kabel yotqizgichlari va ko'tariluvchi qavslar bo'ylab VVGng kabeli bilan amalga oshiriladi. Zinapoyalarni va lift oldi yo'laklarini ishchi yoritish uchun elektr ta'minoti tarmog'i devorlar bo'ylab ko'tariluvchi gofra trubalardagi VVGng kabeli bilan amalga oshiriladi.

Energiya tejamkorlik:

Binolar tom qismiga umumiy quvvati 15 kwt dan bo’lgan 3 dona quyosh panellari jamlanmasi o’rnatish ko’zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 05.02.2026-yildagi №252158303-sonli xulosasi.

5.2. Davlat ekologik ekspertizasi markazining Andijon viloyati filiali tomonidan 2026-yil 15-yanvar kuni berilgan №01-02/03-7358-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **39 057 470 130** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **613 243 802** so'mga kamaytirilib,

38 444 226 328 so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **32 667 917 188** so'm

Asbob-uskunalar: **1 647 284 891** so'm

QQS: **4 119 024 249** so'm

6.1. Loyiha-smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Ishchi loyixaga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, xaqiqiy(ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.3. Ekpertizaga oid ko‘rib chiqish jarayonida ishchi loyihaning bo'limlari yuzasidan berilgan e'tiroz va kamchilliklarni to'liq bartaraf etish lozim. Ekspert mutahassislar tomonidan ko`rsatilgan bandlar buyurtmachi va loyiha tashkiloti tomonidan to`liq bajarilmagan taqdirda ushbu ekspertiza xulosasi o`z kuchini yo`qotgan deb xisoblanadi:
- avtoturargohlarda mashina-joylari sonining belgilangan normalarga yetkazgan holda tashkil etish buyurtmachining 2026-yil 3-martdagi №15/1-son ijara shartnomasiga asosan buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi.
6.4. Ushbu ekspertiza xulosasida pudratchining boshqa harajatlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Andijon viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatni o’z zimmasiga olmaydi. Vaholanki, Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 05.02.2026-yildagi №252158303-sonli xulosasida obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan.
6.5. Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar, shu jumladan, O'zbekiston Nogironlar jamiyati Andijon viloyat bo'limi bilan kelishish lozim.
6.6. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019-yil 19-avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 9-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan “Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi” Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.
6.7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.
6.8. Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish obyektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori bilan bir vaqtda ShNQ 2.01.02-04, ShNQ 2.04.09-21, ShNQ 2.07.01-23, ShNQ 2.08.01-24, ShNQ 2.08.02-23, ShNQ 2.08.04-24, ShNQ 2.07.02-24 hamda ShNQ 2.08.07-22 talablarini hisobga olgan holda, loyihalashtirish topshirig‘iga asosan talablarga to`liq amal qilinsin.
6.9. Taqdim etilgan umumiy miqdori buyurtmachining boshqa harajatlarisiz va 12% QQS bilan 39 057 470 130 so'mni tashkil qilgan. Ekspertiza ko'rigidan so`ng 613 243 802 so'm ashyolar narxi, smetaning lokal qismi va ish hajmlarining to’g’rilanishi xisobidan iqtisod qilindi.

7. Xulosalar.

7.1. Ishchi loyiha bo`yicha Andijon shaxar, O‘zbekiston 20 yilligi MFY, Sariquy ko'chasi 89-manzil hududida “Mavjud ma’muriy va ishlab chiqarish binolarini buzib o’rnida 9 qavatli 10-qavati mansarda uslubidagi turar-joy” bino inshootlari qurilishi, taqdim etilgan quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlash uchun tavsiya qilinadi:

Qurilish maydoni	- 1 193.58 m2;
Umumiy maydon	- 12 535.04 m2;

Yashash maydoni	- 9 901.95 m2;
Qurilish hajmi	- 43 223.19 m3;
Me'yoriy mehnat sarfi	- 241 110.245 odam/soat;
Joriy narxdagi tavsiyaviy (boshlang'ich) miqdori 12% QQS bilan (Buyurtmachining boshqa harajatlarisiz)	- 38 444 226 328 so'm.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o`tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang`ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

7.3. ShNQ 1.03.06-13da “Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi”.

7.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-sentabr 2021-yildagi №579-sonli qarorining 5-bob, 36-bandida shaharsozlik xujjatlari bo’yicha ekspert tashkilotlar tomonidan berilgan ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil etib belgilangan!

Ishtirokchi ekspertlar: Shakurov Rafael Faxrazeyevich, Raxmatullin Dil’shad Xamzayevich, Umarov Ravshan Maxamadjonovich, Madmarov Baxtiyor Baxodirovich, Asqarov Otabek Fazlidinovich, Olimjonov Jaxongir Nabijon O‘g‘li, Soliyev Joxongir Maripjon O‘g‘li

Bosh ekspert **SOLIYEV JOXONGIR MARIPJON O‘G‘LI**